

**TA'LIMGa INNOVATSION YONDASHUVNING AMALIY
JIHATLAR**

Umirzakova Sevinchbonu Marg'obiddin qizi

JDPU matematika va informatika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi

JDPU matematika va informatika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugunning kunning eng muhim mavzularidan biri ya'ni ta'lim jarayonlari hamda ta'lim tizimida innovatsion yondashuv nima va u qanday amalga oshirilayotganligi haqida ko'rib chiqamiz. Aynan innovatsion yondashuv orqali yoshlarga yanada ko'proq bilim ko'nikma, malaka berib boriladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogika, innovatsion tizim, pedagog yondashuv, ta'lim tizimi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limga bo'lgan e'tibor, yoshlarga bo'lgan e'tibor kundan kunga ortib bormoqda, zamon talabiga mos keluvchi kadrlar zamonaviy texnologiyalar asosida yangi yo'nalishlarda bilimlar berib bormoqda. Shuningdek, har bir ta'lim jarayonida zamonaviy metodlar, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g'oyalar asosida dars ishlanmalari asta sekinlik bilan har bir viloyatga, shaharlarimizga kirib bormoqda. Shu o'rinda innovatsiya so'ziga izoh berib o'tsak: "Innovatsiya" ingliz tilidan olingan so'z bo'lib "inovation" – "yangilik kiritaman" degan ma'noni ifodalaydi.

Innovatsiya-bu yangi metodologiya va standartlarni ta'lim jarayoniga joriy etishdir. Innovatsion ta'lim – bu yangi bilim yaratish jarayonida o'z ichiga oladi. Innovatsiya ta'lim jarayonini modernizatsiya qiluvchi asosiy omil sifatida yangicha g'oyalar, mazmun, shakl va o'qitish usullarini joriy etadi. Ta'limda innovatsion yondashuvni bir nechta bosqichlari mavjuddir: -zamonaviy texnologiyalar asosida darslar tashkil qilinshi; metodlardan foydalanish; jamoaviy hamda individual ishlash; yangi g'oyalar kiritish.

So'nggi yillarda ta'lim tizimi jadal o'zgarishlarga duch kelmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kengayishi, global ilmiy-texnikaviy rivojlanish va yoshlar ehtiyojlarining o'zgarishi ta'lim jarayoniga yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Hozirgi kunda ana'anaviy metodlar o'quvchilarning bilim olish samaradorligini va ularning ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun yetarli bo'lmayapti. Shu sababli ta'limga innovatsion yondashuvni tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Innovatsion yondashuvlar interfaol ta'lim metodlari, onlayn ta'lim platformalari, virtual va interaktiv laboratoriyalar, texnologik vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilarni faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, ta'limni samarali tashkil qiladi. Innovatsion yondashuvlarning asosiy vazifasi - o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini maksimal darajada rivojlantirishdir. Bu jarayonda interaktiv metodlar, onlayn platformalar va multimediya vositalari keng qo'llaniladi.

Biroq, innovatsion yondashuvlarni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. **Birinchidan**, texnologik resurslarni yetishmasligi o'quv jarayonini samarali tashkil etishni qiyinlashtiradi. Ayrim maktab va universitetlarda kompyuter, interaktiv doska va boshqa kerakli resurslar yetarli emas. Bu esa pedagoglarni zamonaviy g'oyalarini amalda qo'llashni cheklaydi. **Ikkinchidan**, Pedagoglarning innovatsion yondashuv to'g'rida tayyorgarligi pastligi ham to'siq bo'lishi mumkin. Ko'plab o'qituvchilar innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha yetarli malakaga ega emas va yangi texnologiyalarni samarali ishlata olmaydi. **Uchinchidan**, o'quvchilarni yangi metodlarga moslashtirishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Chunki har bir o'quvchi texnologik va interfaol yondashuvlarga birdek moslashib keta olmaydi. Shuningdek, moliyaviy cheklovlar innovatsion usullarni tatbiq etish uchun qo'shimcha mablag'larni talab qiladi.

Shu muammolarni yengib o'tish uchun bir qancha samarali yechimlar mavjud. Avvalo, ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan jihozlash va ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash zarur. Shuningdek pedagoglarni zamonaviy o'qitish metodikalari bo'yicha muntazam malaka oshirish tizimini joriy etish kerak. Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda ilg'or

xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim jihat - ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi o'quv muhiti yaratishdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ular o'quvchilarning faolligini oshirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Biroq, ushbu yondashuvlarni amaliyotga to'liq joriy etishda bir qator tizimli muammolar mavjud: moddiy-texnik ta'minotning yetarli emasligi, o'qituvchilarning malaka darajasi pastligi, metodik materiallarning kamligi va yagona yondashuvlarning yo'qligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim muassasalarining infratuzilmasini zamon talablariga mos ravishda modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz o'quv tizimini yo'lga qo'yish, hamda ilg'or tajribalarni milliy tizimga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'limga oid islohotlar faqat davlat darajasida emas, balki barcha manfaatdor tomonlar — o'qituvchilar, otaonalar va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi lozim. Faqat shundagina biz zamon bilan hamqadam, raqobatbardosh avlodni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduraxmonov, Q.X. (2022). Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.
2. Karimova, D.M. (2020). Innovatsion o'qitish texnologiyalari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, 1(3), 45-50.
3. Komilov, B.A., & Xasanova, S.S. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari va ularning yechimlari. Pedagogik izlanishlar, 2(1), 58–64.
4. Qodirova, G.R. (2023). Ta'limda innovatsiyalar: nazariya va amaliyot uyg'unligi. O'zbekiston pedagogik axborot markazi byulleteni, 5(1), 12–17.
5. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO Publishing.